


# Zarafshon

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

**2025-yil 1-fevral, shanba,**
13 (24.039)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz


**O'zbek xalq maqoli**

Ishlagan yerni yashnatar, ishlamagan - qaqshatar

# MAHALLALARDA XAVFSIZ MUHIT YARATISH BO'YICHA SAMARQAND TAJRIBASI BO'LADI



**Viloyat hokimligida davlatimiz rahbarining shu yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan yig'ilish o'tkazildi.**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri Po'lat Bobojonov, Bosh vazir o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova hamda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda viloyat, tuman va shahar sektor boshliqlari, huquq-tartibot organlari va harbiy tashkilotlar rahbarlari hamda "mahalla yettiligi" vakillari qatnashdi.

Yig'ilishda qaror ijrosini ta'minlashda viloyatimizga mas'ul bo'lgan Ichki ishlar vaziri boshchiligidagi ishchi guruh tomonidan ushbu haftada tuman va shaharlarda olib borilgan o'rganish ishlari natijalari, mahallalarda xavfsiz muhit yaratish va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinib, kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

Ta'kidlandiki, qaror talablaridan kelib chiqib, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha har bir tuman va shaharda bajariladigan ishlar aniqlanib, viloyatda mavjud 1126 ta mahallaga oid yo'l xaritalari tasdiqlangan. "Qizil" toifaga tushgan 156 mahallaga mas'ul sektor rahbarlari biriktirilgan.

Viloyatimiz mahallalarida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda yangicha yondashuvlar asosida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yaratiladi. Masalan, Urgut tumanida "Xavfsiz va raqamli mahalla", Toyloq va Past Darg'om tumanlarida "Namunali xavfsiz ko'cha", Bulung'ur tumanida "Xavfsiz bozor", Samarqand shahrida "Xavfsiz bekat", Oqdaryo tumanida "Xotin-qizlar orasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish" bo'yicha namunali tizimlar yo'lga qo'yiladi.

Ichki ishlar vazirligi tomonidan profilaktika kichik inspektorlari, migratsion profilaktika bo'linmalari, ma'muriy amaliyot guruhlari va profilaktika bosh inspektorlari lavozimlarini joriy qilish hamda tegishli shtat birliklarini shakllantirish vazifasi topshirildi. Bu jarayondagi ishni tashkil etishda Samarqand shahridagi Bog'isaroy mahallasida ishga tushirilgan "Huquq-tartibot maskani" namunasidan foydalanish belgilandi.

Yig'ilishda sektor rahbarlari va boshqa mas'ullarning axborotlari eshitildi. Hududlarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olindi.



# ISLOM KARIMOV YOD ETILDI

**30-yanvar kuni Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tavallud kuniga bag'ishlangan tadbirlar bo'lib o'tdi.**

Viloyat va shahar hokimliklari rahbarlari, faollar va jamoatchilik vakillari Samarqand shahridagi Hazrati Xizr majmuasida Islom Karimov maqbarasini ziyorat qildi. Qur'on tilovat qilindi.

Shundan so'ng Registon maydonida o'rnatilgan Islom Karimov haykali poyiga gulchambarlar qo'yildi.

Islom Karimovning mustaqil O'zbekiston davlatini barpo etish va xalqaro maydondagi obro'sini oshirish, xalqimiz farovonligi yo'lida ko'rsatgan tashabbuslari hamda Samarqandda amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari yodga olindi.

# SHAHARSOZLIKDA FRANSUZ KOMPANIYALARI BILAN HAMKORLIK

**Fransiyaning "MEDEF International" ishbilarmonlik harakati qoshidagi "O'zbekiston-Fransiya" kengashi rahbari, "Orano" kompaniyasi raisi Klod Imoven boshchiligidagi delegatsiya Samarqandga keldi. Dastlab Shirin shaharchasi direksiyasida viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev boshchiligidagi mas'ullar hamda tadbirkorlarning fransiyalik ishbilarmonlar bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.**



Viloyat rahbari O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi hamkorlik aloqalari uzoq tarixga egaligi, iqtisodiy, sarmoyaviy va moliyaviy-texnikaviy sohalardagi aloqalar, jumladan, viloyatda fransuz kompaniyalari bilan hamkorlik mustahkamlanib borayotgani va bu aloqalarni davom ettirish tarafdori ekanini ta'kidladi.

– Davlatimiz rahbarining taklifiga ko'ra, Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning 2023-yilda rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga, xususan, Samarqand shahriga kelgani ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikda tub burilish yasadi, - dedi A.Boboyev. – Ushbu tashrif doirasida Fransuz alyansining Samarqanddagi filiali ochilishi madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish imkonini berdi. Fursatdan foydalanib, fransuz kompaniyalarining innovatsion, texnologik va investitsion salohiyatini yuksak baholagan holda turizm, shaharsozlik, transport, energetika, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati sohalarida hamkorlik aloqalarini o'rnatish va davom ettirishni taklif qilaman. Jumladan, shaharsozlik va "aqlli shahar" loyihalari – biz amalga oshirayotgan eng katta loyihalardan biri - 660 gektar maydonni o'z ichiga olgan Shirin shaharchasi qurilishidir. Ushbu zamonaviy shahar turar-joy majmualari, savdo va biznes markazlari hamda zamonaviy infratuzilmani o'z ichiga oladi. Energiya samaradorligi yuqori bo'lgan binolar, zamonaviy kommunal xizmatlar va shaharchaning intellektual infratuzilmasini rivojlantirishda fransuz mutaxassislarining tajribasi juda muhim. Mazkur loyiha yuzasidan Fransiyaning boy tajribaga ega bo'lgan "Ellips Prodjekts EsEyEs" kompaniyasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ysak, maqsadga muvofiq bo'lardi.

"MEDEF International" dunyoning turli mamlakatlari bilan biznes va investitsion aloqalarni rivojlantirishga ixtisoslashgan tashkilot bo'lib, yetti mingdan ortiq fransuz kompaniyalarini birlashtiradi.

– Prezidentimiz davlat tashrifi bilan O'zbekistonga kelganda ilk bor bu tarixiy shaharda bo'lganman, – dedi Klod Imoven. – Samarqandda eng yaxshi rivojlangan yo'nalishlardan biri – turizm. Shaharda ushbu soha bilan birga, sog'liqni saqlash, jamoat transporti, energetika, shaharsozlik yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish tarafdorimiz.

Uchrashuv yakunida Samarqandning turizm salohiyati, Shirin shaharchasi loyihasi taqdimot qilindi.

Tashrif dasturiga muvofiq, delegatsiya a'zolari Amir Temur maqbarasi, Registon maydoni va boshqa diqqatga sazovor joylarni tomosha qildi.

**F.RO'ZIBOYEV.**

# Samarqandning tarixi qanchalik o'rganilgan?

**Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev ziyolilar va tarixchi-olimlar bilan uchrashuvda shu savolni o'rtaga tashladi.**




— Samarqand dunyodagi eng qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi, ammo bu tarixni ko'rsatib beradigan joylarimiz sanoqli, - dedi hokim. – Ko'plab tarixiy manzillar, hatto Amir Temur saroyining joylashish joyi ham kompleks tadqiq qilinmagan. Biz tariximizni tiklashimiz, arxeologik obyektlarni topib, restavratsiya qilishimiz kerak. Bu orqali viloyatning turizm salohiyati ham oshadi.

Shu masalaga bag'ishlangan yig'ilishda tarix fanlari nomzodi, dots. nt Mahmud Nasrullayev, Samarqand arxeologiya instituti direktori Mo'minxon Saidov va boshqalar so'zga chiqib, hali to'liq o'rganilmagan arxeologik obyektlar, diyorimizda yashab o'tgan buyuk insonlar qabrlari, Amir Temur arki va u joylashgan joy haqida ma'lumot berishdi. Ilmiy tadqiq etish yuzasidan takliflar aytildi. Tariximizning yo'qotilgan qismlarini tiklashda jahon tarixi manbalari, xususan, yurtimizda bo'lgan elchi va tarixchilarning qaydlaridan foydalanish kerakligi, bugungi kunda keng qamrovli arxeologik tadqiqotlarga imkoniyat borligi ta'kidlandi.

— 2019-yilda viloyatimizda 973 ta arxeologik obyekt ro'yxatga olingan edi, - deydi Mo'minxon Saidov. – Keyingi yillardagi o'rganishlarimiz natijasida ularning soni 1600 taga yetdi va bu hali yakuniy raqam emas. Hozirgacha ularning bor-yo'g'i 100 ga yaqini to'liq tadqiq etilgan. Shu nuqtayi nazardan bugungi uchrashuvni juda muhim deb hisoblayman. Yig'ilishda tariximizni o'rganish jarayonida duch kelinayotgan muammolar bo'yicha ham fikr almashib, ularni hal qilish masalalarini muhokama qildik. O'ylaymanki, boshlangan bu ezgu harakat tez orada o'z samarasini beradi.

Viloyat hokimi bildirilgan barcha taklif va fikrlar o'rganib chiqilishi, bu kabi uchrashuvlar tez-tez o'tkazib turilishini bildirdi.

**A.BAROTOV.**

# Quyi palata deputatlari "pastga tushgan"...

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari xalq bilan yaqindan muloqot qilish, aholi muammolarini o'rganish, ularga ijobiy yechim topish maqsadida ushbu haftada o'zlari saylangan okruglarda bo'lib, saylovchilar bilan ochiq muloqotlar qilmoqda.**

Uchrashuvlarda asosan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan yangi qonunlarning mazmun-mohiyati haqida ma'lumotlar berilmoqda. Shuningdek, deputatlar kambag'allikni qisqartirish, investitsiyaviy loyihalar, yangi uy-joylar qurilishi, agrar sohadagi mavsumiy ishlarning borishi kabi qator masalalarni ham o'rganmoqda.

**O'ZARO HAMKORLIK MUSTAHKAMLANADI**

Ekologik partiya viloyat tashkilotida deputatlar, shahar va tumanlar partiya tashkilotlari raislari, ekofaollar ishtirok etgan tadbirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Botirali Shodiyev so'zga chiqib, partiya fraksiyasi deputatlari oldida turgan vazifalar, "yashil iqtisodiyot"ni yanada rivojlantirish, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladigan qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish mexanizmlari xususida gapirdi.

Aholi va elektorat vakillari ishtirokida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining afzalliklari, hayvonot va o'simlik dunyosini himoya qilish bilan bog'liq dolzarb vazifalarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlarining hamkorligini yanada kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda joylardagi muammolarga hamkorlikda ijobiy yechim topish bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan ish rejasi ishlab chiqilishi belgilandi.

(Davomi 2-sahifada) »»

*Xalq deputatlari viloyat Kengashining QARORI*

# Samarqand viloyatining 2025-yilda jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni, soliqning qat’iy belgilangan miqdorlarida soliq to‘lovchilar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlarini va mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslarning ijara to‘lovini eng kam stavkalarining oshiruvchi koeffisiyentlarini tasdiqlash to‘g‘risida

*O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 15-noyabrdagi 24-117005-son xati, viloyat soliq boshqarmasining 2024-yil 5-dekabrdagi 27-126208-son murojaatini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashining yettinchi chaqiriq oltinchi sessiyasi* **QAROR QILADI:**

1. Viloyat soliq boshqarmasi boshlig‘ining Samarqand viloyatining 2025-yilga mo‘ljallangan soliq va budjet siyosati to‘g‘risida bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

- jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 1-ilovaga muvofiq;
- soliqni qat’iy belgilangan miqdorlarda to‘lovchi soliq to‘lovchilar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;
- mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslarning ijara to‘lovining eng kam stavkalariga 2,0 gacha oshiruvchi koeffisiyentlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman (shahar)lar xalq deputatlari Kengashlariga mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlash tavsiya qilinsin:

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffisiyentlar miqdori;
- noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffisiyentlar miqdori tasdiqlansin.

4. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Po‘latov) hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Abilov) zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi Sh.NEGMATOV**

*2025-yil 28-yanvar № VII-6-5-7-0-K/25*

*Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 28-yanvardagi VII-6-5-7-0-K/25-son qaroriga* **1-ILOVA**

### 2025-yilda tuman va shaharlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

| T/r | Tuman va shaharlar nomi | *Koeffitsiyent** | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m. gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek, boshqa imoratlar, binolar va inshootlar | Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni 200 kv.m. dan ortiq va 500 kv.m. gacha bo‘lgan | Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni 500 kv.m. dan ortiq bo‘lgan | Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m. dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari | Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari |
| 1 | Samarqand shahri | 1,20 | 1,20 | 1,20 | 1,20 | 1,00 |
| 2 | Toyloq tumani | 1,10 | 1,10 | 1,10 | 1,20 | 1,00 |
| 3 | Kattaqo‘rg‘on shahri | 1,10 | 1,10 | 1,10 | 1,20 | 1,00 |
| 4 | Oqdaryo tumani | 1,10 | 1,10 | 1,10 | 1,20 | 1,00 |
| 5 | Bulung‘ur tumani | 1,10 | 1,10 | 1,10 | 1,20 | 1,00 |
| 6 | Jomboy tumani | 1,10 | 1,10 | 1,10 | 1,20 | 1,00 |
| 7 | Ishtixon tumani | 1,10 | 1,10 | 1,10 | 1,20 | 1,00 |
| 8 | Kattaqo‘rg‘on tumani | 1,10 | 1,10 | 1,10 | 1,20 | 1,00 |
| 9 | Qo‘shrabot tumani | 1,10 | 1,10 | 1,10 | 1,20 | 1,00 |
| 10 | Narpay tumani | 1,10 | 1,10 | 1,10 | 1,20 | 1,00 |
| 11 | Payariq tumani | 1,10 | 1,10 | 1,10 | 1,20 | 1,00 |
| 12 | Past Darg‘om tumani | 1,10 | 1,10 | 1,10 | 1,20 | 1,00 |
| 13 | Paxtachi tumani | 1,10 | 1,10 | 1,10 | 1,20 | 1,00 |
| 14 | Samarqand tumani | 1,15 | 1,15 | 1,15 | 1,20 | 1,00 |
| 15 | Nurobod tumani | 1,10 | 1,10 | 1,10 | 1,20 | 1,00 |
| 16 | Urgut tumani | 1,10 | 1,10 | 1,10 | 1,20 | 1,00 |

*Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 28-yanvardagi VII-6-5-7-0-K/25-son qaroriga* **2-ILOVA**

### Soliqni qat’iy belgilangan miqdorlarda soliq to‘lovchilar uchun 2025-yilga belgilangan soliq stavkalari

| T/r | Tuman va shaharlar nomi | *Bir oylik soliq stavkalari (so‘mda)* | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Oziq-ovqat va nooziq-ovqat chakana savdosi | Dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari chakana savdosi | Gazeta, jurnal va kitob chakana savdosi | Maishiy xizmatlar, boshqa faoliyat turlari |
| 1 | Samarqand shahri | 800 000 | 200 000 | 200 000 | 200 000 |
| 2 | Toyloq tumani | 270 000 | 70 000 | 70 000 | 70 000 |
| 3 | Kattaqo‘rg‘on shahri | 400 000 | 135 000 | 135 000 | 135 000 |
| 4 | Oqdaryo tumani | 270 000 | 70 000 | 70 000 | 70 000 |
| 5 | Bulung‘ur tumani | 270 000 | 70 000 | 70 000 | 70 000 |
| 6 | Jomboy tumani | 280 000 | 70 000 | 70 000 | 70 000 |
| 7 | Ishtixon tumani | 270 000 | 70 000 | 70 000 | 70 000 |
| 8 | Kattaqo‘rg‘on tumani | 270 000 | 70 000 | 70 000 | 70 000 |
| 9 | Qo‘shrabot tumani | 66 250 | 16 250 | 16 250 | 16 250 |
| 10 | Narpay tumani | 270 000 | 70 000 | 70 000 | 70 000 |
| 11 | Payariq tumani | 270 000 | 70 000 | 70 000 | 70 000 |
| 12 | Past Darg‘om tumani | 280 000 | 75 000 | 75 000 | 75 000 |
| 13 | Paxtachi tumani | 270 000 | 70 000 | 70 000 | 70 000 |
| 14 | Samarqand tumani | 300 000 | 75 000 | 75 000 | 75 000 |
| 15 | Nurobod tumani | 270 000 | 70 000 | 70 000 | 70 000 |
| 16 | Urgut tumani | 300 000 | 75 000 | 75 000 | 75 000 |

*Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 28-yanvardagi VII-6-5-7-0-K/25-son qaroriga* **3-ILOVA**

### 2025-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisiyentlar

| T/r | Tuman va shaharlar nomi | *Koeffitsiyent** | |
|---|---|---|---|
| | | Turarjoylar | Noturar joylar |
| 1 | Samarqand shahri | 1,17 | 1,17 |
| 2 | Toyloq tumani | 1,15 | 1,15 |
| 3 | Kattaqo‘rg‘on shahri | 1,17 | 1,17 |
| 4 | Oqdaryo tumani | 1,15 | 1,15 |
| 5 | Bulung‘ur tumani | 1,15 | 1,15 |
| 6 | Jomboy tumani | 1,15 | 1,15 |
| 7 | Ishtixon tumani | 1,15 | 1,15 |
| 8 | Kattaqo‘rg‘on tumani | 1,15 | 1,15 |
| 9 | Qo‘shrabot tumani | 1,00 | 1,00 |
| 10 | Narpay tumani | 1,15 | 1,15 |
| 11 | Payariq tumani | 1,15 | 1,15 |
| 12 | Past Darg‘om tumani | 1,15 | 1,15 |
| 13 | Paxtachi tumani | 1,15 | 1,15 |
| 14 | Samarqand tumani | 1,17 | 1,17 |
| 15 | Nurobod tumani | 1,00 | 1,00 |
| 16 | Urgut tumani | 1,15 | 1,15 |

# Quyi palata deputatlari “pastga tushgan”...

*(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).*

**“ADOLAT” O‘RNATISH YO‘LIDA**

Partiya ro‘yxati asosida deputat bo‘lgan Yelena Kompolshik Samarqand shahridagi maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ahvoli bilan tanishdi.

Ilk manzil Sevali mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan 50 o‘rinli oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti bo‘ldi. Ushbu tashkilot Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligidan bitim ololmaganligi uchun ish faoliyatini boshlamagan. Shaharning Bog‘bonlar mahallasida joylashgan "Amina kids" oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ham shu muammo. Ushbu bog‘chada ham barcha sharoitlar mavjud bo‘lsa-da, davlat bilan xususiy-sheriklik bo‘yicha bitim tuzilmagan. Shu o‘rinda savol tug‘iladi, yuqoridagi mahalla hududi yaqin atrofida davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti yo‘qligini inobatga olib bitim tuzib, ish faoliyatini boshlashga amaliy yordam berilsa, mahallada 3-7 yoshli bolalar qamrovi oshmasmidi?

Deputat ushbu muammo yechimi bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rishini bildirdi.

Navbatdagi obyekt 29-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tom qismi o‘tgan yili "Ochiq budjet" mablag‘lari hisobidan ta’mirlangan. Ammo deraza romlari hamda o‘quv binolarining poli yaroqsiz holga kelib qolgan. Maktab jamoasining deputatga murojaati xuddi shu masalada bo‘ldi.

“Adolat” SDP vakili tomonidan joylarda aniqlangan shu kabi kamchiliklar bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilishi belgilab olingan.

**“MILLIY TIKLANISH”CHILAR HAM QARAB TURGANI YO‘Q**

Partiya viloyat kengashi ma’lumotlariga ko‘ra parlament quyi palatasida 3 nafar viloyatimiz vakili faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning uchalasi ham ayni kunlarda tumanlarda saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazmoqda.

Misol uchun, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Azamat Pardayev Bulung‘ur tumanida Beshkuvi, Niyozmat, Xo‘jamazgil mahallalari, shuningdek, 10- va 11-umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jamoatchilik bilan muloqot qilgan. Uchrashuvlarda ichki yo‘llarni ta’mirlash va elektr ta’minotini yaxshilash masalalari ko‘tarilgan. Shuningdek, Beshkuvi mahallasidagi saylovoldi uchrashuvlarida saylovchilar tomonidan ko‘tarilgan ichimlik suvi inshootining ishlamasligi bilan bog‘liq muammo yechimi yuzasidan bajarilgan ishlar ko‘zdan kechirildi.

Partiyaning yana bir deputati Bekmirza Eshmirzayev Ishtixon tumanidagi Chinortepa mahallasida joylashgan «Nodirxon Agro produkt ichk» mas’uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishgan. Tadbirkor va ishchilar bilan yaratilgan shart-sharoitlar hamda mavjud muammolar yuzasidan suhbatlashishgan.

**XALQ DEMOKRATIK PARTIYASIDAN YAGONA DEPUTAT**

Boshqa partiyalardan farqli o‘laroq, demokratlardan faqat bir kishi parlament quyi palatasida faoliyat yuritayotgan bo‘lishiga qaramasdan ijtimoiy masalalar yechimida faol bo‘lishga intilmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida XDP fraksiyasi a’zosi Jamol Achilov Samarqand tumani Bo‘zi mahallasida aholi tomonidan katta e’tirozlarga sabab bo‘layotgan, mahalla hududidan o‘tgan 4-H 513 M yo‘lining bir kilometr qismi tor bo‘lib qolganligi sababli, mashinalar qatnovida qiyinchiliklar yuzaga kelayotganini tegishli mutasaddilar bilan joyiga chiqib o‘rgandi.

Muhokamalar davomida mavjud muammo yechimi bo‘yicha takliflar berildi va amalga oshiriladigan birlamchi vazifalar kelishib olindi.

J.Achilovning boshqa hududlarda o‘tgan uchrashuvlarida ham aholini qiynayotgan shu kabi muammolar keng jamoatchilik hamda mutaxassislar ishtirokida muhokama qilingan.

**LIBERALLAR YETAKCHIMI?!**

Ha, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan bo‘lgan deputatlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Liberallar joylardagi muloqotlarda saylovchilarning muammolari, savol va takliflarini o‘rganib, qonun doirasida yechim topishga harakat qilmoqda.

- Keng jamoatchilik bilan muloqotlarimiz avval to‘plangan tajriba asosida yanada mazmunli, muhimi, saylovchilar uchun manfaatli bo‘lishiga harakat qilyapmiz, - deydi deputat Abdullo Aslanov. – Misol uchun, Samarqand tumani Obod mahallasida o‘tkazilgan uchrashuvda mahalladagi muhim kamchiliklar haqida jamoatchilikning murojaat hamda takliflarini eshitdik. Jumladan, Umidbaxsh va Avesto ko‘chalariga asfalt yotqizish, Inoyat ko‘chasidagi ma’nan eskirgan simyog‘ochlarni beton ustunlarga almashtirish va elektr simlarini yangilash zarurligi ta’kidlandi.

Ushbu masalalarni tuman mas’ullari bilan muhokama qilib, muammolarni hal etish bo‘yicha dastlabki kelishuvlarga erishdik.

# “ONA UYI”ning ONALARI

**O‘tgan yilning mart oyidan boshlab Toshkentda Ijtimoiy himoya milliy agentligi va Qozog‘istonning xalqaro jamg‘armasi hamkorligida ikkita “Ona uyi” tajribaviy inqiroz markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.**

“Ona uyi” markazi onalarga qiyin hayotiy vaziyat yoki o‘ylamasdan qilingan harakat tufayli farzandlarini davlat muassasalariga topshirishdan ko‘ra, o‘zi tarbiyalashi imkoniyatini yaratadi. Bu yerda ularga zarur joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak hamda tibbiy yordamni o‘z ichiga oladigan ma’naviy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatiladi. Shuningdek, “Ona uyi”da yashovchi onalarni kasbiy moslashtirish ham ko‘zda tutilgan.

O‘tgan yilning noyabr oyida mamlakatimizdagi uchinchi shunday markaz Samarqandda ishga tushdi.

-Bugunga qadar markazimizga 20 ga yaqin murojaat bo‘ldi, - deydi Samarqand shahridagi “Ona uyi” markazi koordinatori Zilola Umirova. – 13 nafar onani qabul qilib, ularga tibbiy, huquqiy, psixologik va boshqa yordamlar ko‘rsatildi. Yetti nafar ona bilan suhbat olib borilgach, tegishli ko‘rsatmalardan so‘ng oilasiga qaytdi, uch nafari ishga joylashtirildi.

Markazga murojaat etishning tartib-qoidalari bor. Mahallalarda faoliyat ko‘rsatayotgan ijtimoiy xodimlar o‘z hududidagi oilalarning ahvolidan yaxshi xabardor bo‘lishi lozim. Markazga ehtiyoji bor ayollar ham aynan ular tomonidan aniqlanadi va yo‘naltiriladi. Shundan so‘ng bu ayollarga tegishli xizmat ko‘rsatamiz.

Ushbu markaz faoliyati haqida gapirganda ularda ko‘rsatilayotgan yordamlarni raqamlar bilan o‘lchab bo‘lmasligini his qilasiz. Bu yerda ma’lum vaqt yashab, so‘ng farzandini yana ilgarigiday suyib, erkalab, o‘z uyiga qaytayotgan ayollar bor.

Ko‘pchilikning tushuncha va tasavvurlariga ko‘ra, ona farzandini har qanday holatda ham yaxshi ko‘radi va uni himoya qiladi. Biz onalar jasorati va kezi kelganda, farzandi uchun bor imkoniyatini ham sarflab, ularning hayotini yaxshilashga intilishlari haqidagi xulosalarga shu qadar ko‘nikkanmizki, onaning farzandga nisbatan turli noo‘rin xatti-harakatlarini hazm qilolmaymiz. Albatta, buni oqlolmaymiz ham. Ammo hayot haqiqati achchiqroq. Murakkab vaziyatga tushib qolgan onalar farzandidan voz kechishga ham majbur bo‘lyapti. Ba’zilari esa qiyin vaziyatda bolasiga nisbatan histuyg‘uni yo‘qotib qo‘yayapti. Bu – eng qiyini. Sababi, qattiq stress holatida u bolasiga jiddiy shikast yetkazib qo‘yishi ham hech gap emas.



- Onalarning ba’zilari o‘zlari tushgan qiyin vaziyatdan shunchalik qattiq ta’sirlanib kelishadiki, bu ularning ruhiyatida ham aks etadi, - deya suhbatni davom ettiradi Zilola Umirova. – Farzandiga deyarli qaramay, uni eshitolmay qoladi. Ular bilan psixologlarimiz ishlaydi, ba’zilari bir necha kun, ba’zilari bilan oylab ishlashga to‘g‘ri keladi. Shundan keyingina o‘zi tushib qolgan vaziyat o‘tkinchiligini tan olib, farzandiga mehri oshadi, yana yashash uchun kurashadi. Afsuski, ba’zida oliy ma’lumotli, sharoiti uncha yomon bo‘lmagan ayollar ham shunday ruhiy tanglik holatiga tushib qolmoqda. Turmush o‘rtog‘ining xiyonatidan keyin yashashni istamay, o‘ziga ham, bolasiga ham befarq bo‘lib qolgan ayollarga-da yordam berishga to‘g‘ri keldi.

...“Uzoq yillar Rossiya davlatida ishlab yurgandim, yoshim ham 40 ga qarab ketayotgandi. Bir inson bilan tanishib, ahdu paymon qildik, farzandli bo‘ldik. Afsuski, ko‘p o‘tmay u lom-mim demay ketib qoldi. Otalikni belgilash uchun uni sudga bermoqchi bo‘ldim. Rossiyada migrantlarga xizmat ko‘rsatib keluvchi advokat katta pul so‘radi, yiqqan bor mablag‘imni berdim. Lekin advokatning o‘zi pullarimni olib, g‘oyib bo‘ldi. Yaxshi insonlar va tashkilotlar yordamida vatanimga qaytdim, hozir markazdaman... Oyoqqa turib olaman hali, farzandimni ham hech kimdan kam qilmay katta qilaman!”




... “Shu yerda farzandli bo‘ldim, sevganimga ishonib xato qildim. Lekin qanday bo‘lmasin uni o‘zim ulg‘aytiraman!”

...”Eh-he, bu yerga kelguncha nimalarni ko‘rmadim, qaysi ko‘chalardan o‘tmadim. Bolalarim ko‘zimga yukday ko‘rina boshladi. Hech joydan najot yo‘q, onam keksa, bolalarimning otasi bizni ko‘rishni istamaydi... Nonga zor qolgan kunlarimiz bo‘ldi. Markazga kelib, halovat topdim. Lekin bu yerda ko‘p qololmaymiz. Ishlashim, o‘zimning yo‘limni topishim kerak....”

Onalarning bunday mungli hikoyalari ortida turli vaziyatlar, xatoliklar, yolg‘on va sitamlar bor. Ularni onalarning ko‘nglidan chiqarib tashlash, hayotga intilishni qayta o‘rgatish oson kechmaydi, psixolog, huquqshunos, ijtimoiy xodim kabi qator tashkilotlarning kuchli yordamiga muhtoj ular. “Onalar uyi” shunday muhim rishta bo‘lib xizmat qilayapti ular uchun.

**Gulruh MO‘MINOVA.**



# PROKURATURA

## QORALOVCHI ORGAN EMAS, XALQ HIMOYACHISI

**Viloyat prokuraturasida “Prokuratura organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish” konsepsiyasi doirasida ochiq eshiklar kuni hamda press-tur o‘tkazildi.**

Samarqand davlat universiteti yuridik fakulteti professor-o‘qituvchilari va talabalari, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda prokuratura xodimlari ishtirok etgan tadbirlar avvalida viloyat prokurori o‘rinbosari D.Saidqulov va boshqalar viloyat prokuraturasi organlarining faoliyati, keyingi yillarda tizimda amalga oshirilgan yangilik va o‘zgarishlar, ishga qabul qilish tartiblari hamda xodimlar bilim va malakasini oshirish borasidagi ishlar, ular uchun sharoitlar haqida ma’lumot berdilar.

– Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda aholi farovonligini yaxshilashga qaratilgan qonunlar va Prezident qarorlari ijrosini ta’minlash borasida ko‘rilgan choralar, shuningdek, davlat organlari huquqiy hujjatlarining doimiy ravishda o‘rganilishi natijasida 20 mingga yaqin prokuror nazorat hujjatlari qo‘llanildi, 15 ming 800 nafar fuqarolarning huquqlari tiklandi, – deydi Samarqand viloyati prokuraturasi bo‘lim boshlig‘i Muharram Hamroyeva. – Prokurorlarning qarori va taqdimnomasi asosida 4066 nafar shaxs intizomiy, ma’muriy, moddiy javobgarlikka tortildi, noqonuniy qarorlarga nisbatan 3658 ta protest keltirilib, sudlarga 95 milliard so‘mlik 4976 ta da’vo arizalari kiritildi. O‘tkazilgan tekshiruv va jinoyatlarni tergov qilish jarayonida 492 milliard so‘mlik zararlar undirilib, qo‘pol qonun buzilishi holatlari yuzasidan 1186 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atildi.

Prokurorlar rahbarligidagi 2-sektorlar yordamida o‘tgan yil 63,1 ming nafar fuqaroning bandligi ta’minlandi. Oilaviy tadbirkorlik, xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish hamda faoliyatni kengaytirish maqsadida 4153 nafar fuqaroga 182,6 milliard so‘mdan ortiq imtiyozli kredit mablag‘lari ajratildi. Prokurorlarning shaxsiy tashabbusi bilan 535 ta yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etilib, 390 tasining faoliyati qayta tiklanishi natijasida 860 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Bundan tashqari, sektorlardagi mahallalarda 17 ta maktab, 11 ta bog‘cha, 19 ta mahalla binosi, 5 ta oilaviy shifokorlik punkti, 35 ta bolalar maydonchasi va sport o‘yingohlari, 43 ta “workout”, 9 ta nuroniylar choyxonasi yangidan qurildi, 140 ta ijtimoiy soha obyektlarida ta’mirlash ishlari olib borildi.

Tadbir doirasida attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tib, prokuratura organlariga ishga qabul qilingan 3 nafar yosh xodimning qasamyod qabul qilish va ularga darajali unvon topshirish marosimi o‘tkazildi.

Tadbir davomida qonunchilikni targ‘ib qilish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda prokuratura organlari faoliyatini keng jamoatchilikka yetkazish borasida samarali hamkorlik qilib kelayotgan ommaviy axborot vositalari vakillariga viloyat prokurorining tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari topshirildi. Samarqand davlat universitetiga Bosh prokuratura tomonidan tayyorlangan, qatag‘on yillarida nohaq ayblangan prokuratura organlari xodimlari hayot yo‘li va xizmat faoliyatiga bag‘ishlangan “Tarixiy xotira beqiyos” kitobining birinchi va ikkinchi jildlari topshirildi.

Viloyat prokuraturasi rahbarlari va talabalar uchrashuvida yoshlarni qiziqtirgan savollarga batafsil javob qaytarildi.

– Bolaligimdan prokuror bo‘lishni orzu qilganman, – deydi Samarqand davlat universiteti huquqshunoslik fakulteti talabasi Suxrob Bekbirganov. – Qonun himoyasida turish, davlat va jamiyatning manfaatlarini himoya qilish oliy maqsadim. Unga erishish uchun huquqshunoslik yo‘nalishida o‘qiyapman. Viloyat prokuraturasi, prokurorlarning faoliyati bilan yaqindan tanishib, sohaga mehrim yanada oshdi.

Tadbir davomida ishtirokchilar viloyat prokuraturasi muzeyi va kutubxonasi, kriminalistika avtomashinasi, maxsus tergov xonasi, xodimlarning xizmat faoliyati, prokuratura organlarida tashkil etilgan shtablar faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

– Bo‘limimizda qasddan odam o‘ldirish singari og‘ir jinoyatlar hamda korrupsiyaga oid jinoyatlar ko‘rib chiqiladi, – deydi viloyat prokuraturasining o‘ta og‘ir jinoyatlarni tergov qilish bo‘limi katta tergovchisi Begzod Hasanov. – Bu yerda har bir xodimga o‘z vazifasini bajarishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Situatsion markaz, tezkor tergov guruhi kerakli jihozlar bilan ta’minlangan. Bo‘limga kirish qat’iy tartib asosida amalga oshirilsa-da, ish o‘rganaman, degan talabalarga eshiklarimiz doimo ochiq.

**Asqar BAROTOV.**

# OLIY SPORT MAHORATI INSTITUTI

## faoliyatini boshlamasdan tugatilgan

**Prezidentning 2022-yil 6-iyundagi “Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida Samarqandda Oliy sport mahorati instituti tashkil etilishi kerak edi.**

Samarqand shahridagi Ibn Sino ko‘chasi, 17-"A" uy manzilida joylashgan mazkur institutda o‘qish davomiyligi 3 yil bo‘lib, 2023-2024-o‘quv yilida boks, dzyudo, yengil atletika, og‘ir atletika, erkin kurash, yunon-rum kurashi, tayekvondo WT, suzish, akademik eshkak eshish, baydarka va kanoeda eshkak eshish, gandbol, basketbol va paralimpiya sport turlari bo‘yicha yuqori natijalarga erishib kelayotgan sportchilar qabul qilinishi belgilangan edi.

Biroq Prezidentning 2024-yil 28-maydagi «O‘zbekiston davlat sport akademiyasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga ko‘ra, Oliy sport mahorati institutini tashkil etish qarori bekor qilingan va ayni paytda o‘z kuchini yo‘qotgan.

Mazkur qarorga ko‘ra, Oliy sport mahorati instituti negizida O‘zbekiston davlat sport akademiyasi tashkil etiladi va akademiya 2025-2026-o‘quv yilidan faoliyat boshlaydi.

Akademiyaga talabalarni qabul qilish parametrlari Respublika oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi doirasida belgilanadi.

Akademiya talabalarining kontingenti, birinchi navbatda, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida rivojlantirilayotgan sport turlari bo‘yicha so‘nggi bir yilda Jahon, Osiyo va O‘zbekiston chempionatlarida g‘olib va sovrindor bo‘lgan olimpiya va paralimpiya kollejlari, shuningdek, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarining bitiruvchilari orasidan ularning sport natijalariga qarab, saralash (seleksiya) asosida shakllantiriladi.

Bunda, olimpiya va paralimpiya kollejlaridan saralab olingan bitiruvchilar akademiyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ikkinchi bosqichga qabul qilinadi.

Akademiya bitiruvchilariga O‘zbekistonda oliy ta’lim to‘g‘risidagi hujjat sifatida tan olinadigan davlat namunasidagi diplom beriladi.

Akademiya talabalari sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga muvofiq o‘tkaziladigan respublika musobaqalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etadi.

Akademiya bitiruvchilariga trenerlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun malaka sertifikati, istisno tariqasida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri 6 yilga beriladi.

# ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

## yuqumli kasalliklarni erta aniqlashga xizmat qilmoqda

**Viloyatda yuqumli kasalliklarning oldini olish, davolash, nazorat qilish hamda fuqarolarga sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?**



Viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi tomonidan viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasiga uyushtirilgan press-turda shu kabi savollarga javob izlandi.

Boshqarma boshlig‘i Latif Rustamovning ta’kidlashicha, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2022-yilda Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi hamda uning qoshidagi barcha muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta’minlash maqsadida Osiyo taraqqiyot banki va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki hamkorligida loyiha imzolangan. Ushbu loyihaning umumiy qiymati 200 million AQSh dollar bo‘lib, UNOPS tashkiloti tomonidan viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi hamda viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi tuman (shahar) bo‘limlari laboratoriyalariga zamonaviy asbob-uskunalar xarid qilingan.

- Muassasamiz 350 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, nafaqat viloyatimiz, balki qo‘shni viloyatlar aholisiga ham tibbiy xizmat ko‘rsatmoqda, - deydi viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi bosh vrachi Abdusodiq Boymurzayev. – Avvallari shifoxonamizda 50 turdagi laboratoriya tahlillari olinar edi. Bugungi kunda ularning soni bir baravarga oshdi. Jumladan, o‘tgan yil laboratoriyalarimizga 10 turdagi zamonaviy uskunalar keltirildi. Natijada yuqumli kasalliklarni erta aniqlash, bemorga vaqtida tashxis qo‘yish, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati oshdi. Masalan, birgina rentgen apparatida o‘pka va ko‘krak qafasini tekshirish uchun uch daqiqa kifoya. Bu uskunaga bemorning yoshi va ma’lumotlari to‘g‘ri kiritilsagina, aniq tashxis qo‘yib beradi. Bundan tashqari, laboratoriyalarimizda oftalmologik, gemotologik, virusli gepatit va boshqa parazitar kasalliklarni inson omilisiz aniqlaydigan tibbiy jihozlar ham mavjud.

**F.RO‘ZIBOYEV.**

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Mubin Ne’matjonovich notarial idorasida marhum Muxtarov Xadjiga (2006-yil 9-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Mubin Ne’matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Soniy ko‘chasi, 1-uy.**

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasida marhum Djumanov Aman Yunusovichga (2015-yil 4-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko‘chasi, 4-“A” uy.**

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasida marhum Achilov Urinbayga (2016-yil 26-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko‘chasi, 4-“A” uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Qodirov Karimga (2005-yil 12-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko‘chasi, 157-“B” uy. Mo‘ljal: Samarqand viloyat IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari bo‘limi.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Maxmudov Furkat Kaxramonovichga (2014-yil 25-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 110-uy.**

* * *

Past Darg‘om tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasida marhum Xodjanov Uchkun Muxammadovichga (1998-yil 17-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko‘chasi, 48-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Xodjayev Olimjonga (2021-yil 4-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 200-uy, 3-xona.**

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasida marhum Tadjiyev Musurman Suyarovichga (2020-yil 20-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko‘chasi, 4-“A” uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Xamidov Raxmankulga (2021-yil 9-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 200-uy, 3-xona.**

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Djabbarova Firuza Adashovnaga (2024-yil 2-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko‘chasi, 1-uy.**

* * *

Bulung‘ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Abdurahmonov Elyor Jamshidovich notarial idorasida marhum Bo‘kanov Yaxshiboyga (1992-yil 8-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Abdurahmonov Elyor Jamshidovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Bulung‘ur shahri Mustaqillik maydoni.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarda marhum Karshiyev Raximjon Yuldashevichga (2017-yil 20-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so‘raymiz.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Bakiyev Alijanga (2013-yil 6-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Utaganov Arip Xaljigitovichga (2024-yil 12-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 110-uy.**

* * *

Bulung‘ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasida marhum Gapparova Suymaxolga (2023-yil 14-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Bulung‘ur shahri Mustaqillik maydoni.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Marupova Maloxatga (2024-yil 28-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.**

Samarqand shahar “Qir” mahalla fuqarolar yug‘ini ahli shu mahallada yashovchi Muzaffar Isayevga ukasi **Bahrom TURABOV**ning vafoti munosabati balan ta’ziya izhor etadi.

# BURCHNI UNUTMOQ – GUNOH

Mulohaza

**Hayotda har kimning o‘z burchi bor, ya’ni ota – otaligini, ona – onaligini, farzand – farzandligini qilishi lozim. Mabodo ularning birortasi o‘z burchini ko‘ngildagidek bajarmasa, tabiiyki, oilaga putur yetadi.**



Bu aqidalar yillar davomida ajdodlarimiz tomonidan aytib kelinadi. Ming afsuski, ba’zida biz bunday ko‘ngilsiz hollarga duch kelyapmiz...

Yaqinda qabulimga nuroniy otaxon keldi. Ochig‘i, bu kishining ustidagi kir, dazmollanmagan kiyimlari, o‘zini tutishidagi noqulaylik kayfiyatimni buzdi. Shu yoshdagi insonni oilasidagilar ko‘chaga chiqarganda u yoq-bu yog‘iga qarashmabdi-da, degan fikr o‘tdi xayolimdan. Sabr bilan otaxonni tingladim.

- Qizim, pensiyamni rasmiylashtirishda muammoga duch kelyapman.

- Nega, – so‘radim u kishidan.

- Mehnat daftarchamni topa olmayapman. Hech qayerda yo‘q. Pensiya idorasidagilar esa o‘sha ordona hujjatsiz pensiya tayinlay olmaymiz deyishyapti.

Suhbatdan ma’lum bo‘lishicha, otaxon yoshlikdagi xatolari oqibatida keyinchalik turmushda ancha qiyinchilikka duchor bo‘lgan. Ana shu pala-partish hayot tufayli mehnat daftarchasini qayerga qo‘yganini yoki yo‘qotganini ham eslay olmaydi. Darhol tegishli tashkilotlar bilan bog‘landim. Davlat xizmatlari markazidan tushuncha oldim, otaxon nomidan arxivga ariza yozib berdim. Pensiya jamg‘armasiga ham ana shunday hujjat tayyorladik. Murojaatchi bitta tashkilotga kirib, shuncha masalani bira to‘la hal qilish mumkinligiga ishondi.

- Bolam, ilgari bunaqa muammo uchun odamlar yillar sarson bo‘lgan. Men ham shunaqa holga duch keldim, deb o‘ylagandim. Rahmat sizlarga.

Otaxonga davlatimizning qariyalarga, yolg‘iz keksalarga ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rliklarini gapirib berdim. U kishi ham yuragini ochdi.

Ma’lum bo‘lishicha, bu inson yoshligida juda faol bo‘lgan. Uylanib, ikki nafar farzand ko‘rgan, biroq yomon davraga tushib, ichkilikka ruju qo‘ygan. Uni hech kim yo‘ldan qaytara olmagan. Onasi ana shu g‘amda olamdan o‘tgan. Xotini bilan ikki bolasini uydan chiqarib yuborgan. Hatto keyinchalik ham ular holidan xabar olmagan.

Bolalari ulg‘ayib, yaxshi o‘qib, tayinli joyga ishga kirganlar. Ona ularni chin yurakdan tarbiyalagan, odamiylikni o‘rgatgan. Bolalar onasini haj safariga yuborishgan. Otaxon esa e’tiborsiz, qarovchisiz qoldi.

U kishining dardli hikoyalarini eshitayapman-u yuragimdagi og‘riqni to‘xtata olmayman: nega biz noto‘g‘ri harakatimiz uchun birovlarni ayblaymiz? Burchimizni bajarmasdan boshqalarga nega menga qarashmading, deb iddao qilamiz.

Yo‘q, bu otaxon bunday yo‘l tutgan emas. Lekin juda ko‘pchilik ana shunday o‘jarlik yo‘liga o‘tib olgan. O‘zining jamiyat oldidagi, oila oldidagi vazifasini bajarmasdan, men e’tiborsiz qoldim, deb uvvos soladi. Ular mehr buyruq yoki ko‘rgazma bilan paydo bo‘lmasligini tushunishni istamaydilar ham.

Suhbatdoshimning ko‘ngli yorishdi:

- Bolam, demak, mening pensiya olishim aniq - a?

- Albatta, otaxon. Davlatimiz sharoit yaratibdimi, demak siz mehnat stajingizga yarasha pensiya olasiz.

- Qizim, unda sendan bir iltimosim bor. Mabodo pensiyamni olsam huzuringga kelaman. Menga xotinim uchun do‘kondan bitta ko‘ylaklik material tanlashda yordam berasan. Sovg‘ani olgach, xotinimdan, bolalarimdan kechirim so‘ragani boraman...

Menga juda ta’sir qildi bu so‘zlar. Qani endi, bilib-bilmay xato qilgan har bir inson tazarru qilsa. Nasib etsa shu otaxon pensiyani olib kelgach, yanganing oldiga u bilan birga boraman.



**Feruza RAHIMOVA,**
**xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.**

# Qarg‘ish

Turmush chorrahalarida



- Shukur aka, tanishganimizga bir yildan oshyapti, turmush qurish vaqti kelmadimikan?

- Yana ozroq sabr qil, jonim, - Shukur Mastonani mehr bilan quchdi.

Oradan vaqt o‘tib borar, Shukur to‘y haqida og‘iz ochishga shoshilmasdi. U uylangani, Mastona bilan shunchaki ko‘ngilxushlik uchun yurganini aytolmasdi.

- Shukur aka, - dedi u erkalanib, navbatdagi uchrashuvda, - sizni tabriklayman, to‘yni tezlashtiring, yaqinda ota bo‘lasiz!

Shukur taxtaday qotib qoldi.

- Nima? Nima deding? Bunday bo‘lishi mumkin emas, - u o‘ziga kelib, jazavaga tushdi. - Homilangni yo‘q qil!

- O‘ylab gapiryapsizmi, axir u bizning farzandimiz-ku, sen bilan baxtli bo‘lamiz, shirin-shirin bolalarimiz bo‘ladi, deganlaringiz yolg‘on ekan-da!

- Men... men.., - Shukur dovdirab kalovlandi, - men uylanganman...

- Hali meni aldab yurganmiding, nomard! - buni kutmagan Mastona ho‘ngrab yig‘lab yubordi, Shukurning yuz-ko‘zlarini yumdalab, ko‘kraklariga mushtladi.

- O‘zingni bos, men bunday bo‘ladi deb o‘ylamovdim, sensiz yashay olmayman, deb bo‘ynimga osilib olgan o‘zingmasmi?

- Maraz, ablah, seni ko‘rgani ko‘zim yo‘q. Hali men senga osilibmanmi, tunu-kun ortimdan itday ergashib, sevib qoldim, deb holi jonimga qo‘ymagan, shirin va’dalar bergan sen ablah emasmiding?!

...Shukur o‘sha ayriliq damlarini, Mastonaning telbalarcha qarg‘ishlarini eslar ekan, nomardlik qilganidan, bechora bokira bir qizning nomusini paymol qilgani, qornida homilasi bilan tashlab ketganidan dodlagisi kelardi. Mastona hozir qayerda ekan, farzand ko‘rgan bo‘lsa, qizmikan, o‘g‘ilmikan? Uni qarg‘ishi urdi, Shukur farzand ko‘rmadi.

“Mastona, qayerdasan, men nomardni kechir!”. Mastona yerda ham, ko‘kda ham yo‘q edi. Dunyo bunchalar shafqatsiz, taqdir ayovsiz bo‘lmasa...

- Mening sendek qizim yo‘q, yo‘qol ko‘zimdan, oq padar, - dedi otasi.

- Boshimizda shunday ko‘rguliklar bormidi, juvonmarg, bizni tiriklayin go‘rga tiqding-ku, sharmanda, - sochlarini yuldi onaizor.

- Homilani endi olib tashlab bo‘lmaydi, ancha katta bo‘lib qolgan, xavfli, - dedi shifokor.

Mastona uydan haydalgach, shaharda bir so‘qqabosh kampirnikidan panoh topdi. Qizi tug‘ildi, unga Oysara deb ism qo‘ydi. Qizini o‘ylab turmush qurmadi, butun borlig‘ini unga bag‘ishladi. Oysara ulg‘ayib, otasini so‘raganda “u sen tug‘ilishingdan sal oldin o‘lgandi”, deb aldadi.

Shukur qayta-qayta uylanib ham farzand ko‘rmagach, farzand dog‘ida adoyi tamom bo‘ldi. Unga dunyoning qizig‘i qolmagandi. Yoshlikdagi beboshlik qimmatga tushdi. Taqdir jazosi og‘ir bo‘ldi. U Mastonani qidirib topish, qilgan xatosi uchun tiz cho‘kib, kechirim so‘rash, agar farzand ko‘rgan bo‘lsa, qizmi, o‘g‘ilmi uni bag‘riga bosib boshini silash ilinjida yashadi. Ammo Mastonaning qayerga ketganini, bormi, yo‘qligini hech kim bilmasdi.

Oradan yillar o‘tdi, Shukur buva Mastonani ko‘rishdan umidini uzdi. Pushaymon o‘tida yuragi kuyib ado bo‘ldi...

- Otaxon, kasalingiz ancha jiddiy, yurak bilan hazillashib bo‘lmaydi, sizga asabiylashish, hayajonlanish mumkin emas, - dedi do‘xtir qiz hamshiraga muolaja dori-darmonlarini tayinlar ekan.

Shukur buva do‘xtir qizga qarab yuragi hapqirib ketdi. Nahotki, nahotki? Do‘xtir qiz bir tomchi suvdek Mastonaga o‘xshardi. Bo‘lishi mumkin emas!

- Qizim, kechirasiz, - dedi istihola bilan, - otangiz bormi?

- Yo‘q, o‘lgan!

- Onangiz-chi, hayotmi?

- Ha, xudoga shukur, hayot!

- Ismi Mastona emasmi?

- Ha, Mastona! Nima, siz taniysizmi?

- Qizim! - Shukur buva ko‘ksini changallab ingrab yubordi, uning yuzi dokaday oqarib ketgandi.

- Otaxon, ko‘zingizni oching, sizga nima bo‘ldi? - Oysara uning ko‘ksini massaj qilishga kirishdi. - Hamshira, elektroshokni keltiring. Yurak urishi sezilmayapti.

Qo‘lida o‘lim bilan olishayotgan bemor chol onasining qarg‘ishi urgan otasi ekanligi Oysaraning xayoliga ham kelmasdi.



**Tog‘aymurod SHOMURODOV.**

# *Misli yog‘du bo‘ldi Navoiydek sham*



*Alisher tug‘ilgan Shohruh davrida,*
*Otasi Hirotni boshqargan hokim.*
*Xuroson o‘lkasi gullab-yashnadi,*
*Shohruh Mirzo vafot etguncha tokim...*
*Olti yoshda edi murg‘ak Alisher,*
*Notinchlikdan xoli, dil – bexavotir.*
*Egallab olishga Hirot taxtini*
*Bosh ko‘tardi ko‘plab temuriy botir...*
*Bo‘lmoqqa g‘avg‘odan olis, oila*
*Qum deya atalgan shaharga yurdi.*
*Ne baxtki Alisher shu yerda ilk bor,*
*Sakson yoshga kirgan Lutfiyni ko‘rdi.*
*Olti yosh bolaning zakosin ko‘rib,*
*Mavlono Lutfiyning keldi havasi.*
*Go‘yo o‘sha onda olis o‘tmishning,*
*Yetishgandek bo‘ldi ibratli sasi:*
*Nishopurda ikki asr muqaddam,*
*Jaloliddin Rumiy o‘n ikki yoshda,*
*Fariduddin Attor bilan yuzlashgan,*
*Musofirlik dardi bor edi boshda.*
*...Alisher Attorga shogird g‘oyibdan,*
*“Mantiq ut-tayr”ni olgandi yodlab.*
*Lutfiyga duch kelgach, tirik dahoni,*
*Uchratdi-yu yurdi dilini shodlab.*
*Ulug‘lar yonida ibrat olmoqning,*
*Qadri boshqachadir, zavqi o‘zgacha.*
*Yuzidan nur yoqqan xotirjam bu zot,*
*Yashay olgudayin hatto yuzgacha.*

* * *

*Keyin Abulqosim Mirzo – nabira*
*Taxtni egalladi, tiklandi tinchlik.*
*Ammo zilzilalar etarkan davom,*
*To‘kilgaydir bino, bo‘lsa ham sinchlik...*
*Ulug‘bek xor bo‘ldi qotil qo‘lida,*
*Saroy fitnasi-la taxtidan uchdi.*
*El-ulus tinchligi buzilgach alhol,*
*Noiloj musofir yurtlarga ko‘chdi...*
*Yaratganga har kim aylab tavakkul,*
*Yashardi manglaydan ko‘rgancha baxtin.*
*Ancha nizolardan so‘ng egalladi*
*Abusayid Mirzo Samarqand taxtin.*
*Abulqosim Bobur poytaxt maqomin*
*Hirotdan ko‘chirdi Mashhad shahriga.*
*Navoiy otasi yana hokimdir,*
*Yeng shimardi bardam xizmat bahriga.*
*Alisher shu yerda o‘qib maktabda,*
*Husayn Mirzodek topdi qalin do‘st.*
*Yetdim deganida yiqilgan kabi,*
*Boshiga kulfatlar yog‘di ustma-ust:*
*Xastalik tugatdi otasin umrin,*
*Endi o‘n to‘rt yoshga to‘lgan Alisher.*
*Abulqosim Bobur mehr ko‘rgazib*
*Yetim qolgan oilang g‘amin yer.*
*Alisher olindi devon ishiga,*
*Husayn Mirzo ham saroyda a’yon.*
*Ikkisi ham ota mehridan judo,*
*Har ishda hamdardlik qilarlar ayon.*

* * *

*Murti sabza urar balog‘at yoshda,*
*Alisher boshiga yog‘di tashvishlar.*
*Go‘yo kambag‘alni tuya ustida*
*Har o‘tkinchi ko‘ppak bemalol tishlar...*
*Otadan ayrildi ikki yil burun,*
*Ko‘p o‘tmay ona ham rizolik so‘rdi.*
*Ularning tuprog‘i sovumay turib,*
*Ikki tog‘asin ham taqdir ko‘p ko‘rdi...*
*Abulqosim Bobur – shohi Xuroson,*
*To‘satdan o‘ldi-yu, notinchdir Mashhad.*
*Abu Said Mirzo taxtni egallab,*
*Tinchgina turmushda qo‘zg‘adi dahshat...*
*Poytaxtlik maqomi Hirotga qaytdi,*
*Taxt uchun kurashlar boshlandi zimdan.*
*Kechagina beg‘am yurganlar bilmas,*
*Yomonlik yetgusi qaydan va kimdan...*
*Ta’lim, madaniyat holi ko‘p xarob.*
*Otaning mol-mulki ketgandi qo‘ldan.*
*Birovga arzi-hol qilmoqchi bo‘lsang,*
*Ul ersa ho‘ngrabon chiqardi yo‘ldan...*
*Ulg‘aygan Husayn Mirzo to‘plar kuch,*
*Bobosin taxtiga da’vosi dilda.*
*Endi eski do‘stlar yonma-yon emas,*
*Ko‘rishib qolarlar maxfiy oy, yilda...*
*Garchi ijodiga sho‘ng‘igan shoir,*
*Qalami to‘xtamas edi yozuvdan.*
*Va lekin dushmanlar tinmay shoirning*
*Yo‘lida qolmasdi chuqur qazuvdan.*
*Shu hol shoir nomi “qora ro‘yxat”ga*
*Tirkaldi va bo‘ldi yurtdan badarg‘a.*
*To Samarqand qadar ta’qib ayladi,*
*Izidan kulfat deb atalgan qarg‘a...*
*Yigirma uch yoshli Alisher uchun,*
*Umrida ilk katta hijrat edi bul.*
*Qalamidan alami to‘kilgan ko‘yi:*
*“Mehribone topmadim...” deb yozgandi ul.*

* * *

*Hirotdan yo‘l olgan karvon Samarqand,*
*Manzilini sokin borardi ko‘zlab.*
*Har biri o‘zining tashvishi-la band*
*Olddan chiqar shahru qishloqlar yuzlab.*
*Shoirning o‘zidan burun bu yerga,*
*She’rlarin shuhrati kelganmish yetib.*
*Kim bilan tanishgan bo‘lsa ilk bora,*
*Olardi shoirni o‘zga do‘st etib.*
*Samarqand hokimi Mirzo Hojibek,*
*She’rga ixlos qo‘ymish ta’bi nozik zot.*
*Bo‘sh vaqtin topgancha suhbat qurish-chun,*
*Yo‘qlab turar edi shoirni bot-bot.*
*Hirot notinchligi hatto Jomiydek,*
*Ulug‘ allomani keltirmish bunga.*
*Ul zoti muborak suhbat asnosi,*
*Nazmiy javobirlar ilinar unga.*
*“Haft avrang” – “Yetti taxt” – Jomiy “Xamsa”si,*
*O‘ziga jam etgan yetti dostonni.*
*Alisher ularni o‘qish asnosi,*
*Ko‘z nurini sarflab ottirar tongni.*
*Ilmin ham kamolga yetkazmoq uchun,*
*Samarqand shoirga madrasa bo‘ldi.*
*Turkiy tilda ravon she’rlar bituvchi,*
*Shomlar shoirlarga atrofi to‘ldi.*
*Bu yerda Sakkokiy nazmi ardoqda,*
*Ulug‘bek saroyin ko‘rk-u orosi.*
*Lutfiy she’rlariga tenglasha olgan,*
*Sakkokiy merosin mushku sorosi.*
*Ulug‘bekdan qolgan rasadxona ham,*
*Xarobroq bo‘lsa-da salobat to‘kkay.*
*Karvonlarga mayoq tik Afrosiyob,*
*Poyida charchagan tuyalar cho‘kkay...*
*Bog‘lar qolmish bunda Sohibqirondan,*
*Maqbarada orom topgandir o‘zi.*
*...Shoir tor hujraga qamalgan bilan,*
*Olamga tarqardi she’rlarda so‘zi.*
*Bir devon tuzgulik ko‘tarmish xirmon,*
*Samarqandda topdi ilmi ham kamol.*
*Musofirlik oshgach to‘rtinchi yildan,*
*Hirotdan xushxabar keltirdi shamol:*
*Abu Said Mirzo halokat topib,*
*Husayin Mirzoning kulmish iqboli.*
*Yangi bir davrga qo‘yganchа qadam,*
*Xuroson samosi bulutdan holi!*

* * *

*Navoiy do‘stining maktubin o‘qib,*
*Yo‘lga tushmoqlikka hozirlik ko‘rar.*
*To‘rt yilcha ardoqlab non-u tuz tutgan,*
*Ko‘hna Samarqanddan rozilik so‘rar...*
*Amu suvlaridan kecharkan karvon,*
*Shoir taqdirga madh aytmoqda erdi.*
*Shogird sifatida chiqqandi yurtdan,*
*Endi ustoz bo‘lib qaytmoqda erdi!*
*Ajib bir shukuhga to‘lmoqda Hirot,*
*Bu yurtda ardoqda emish Jomiy ham.*
*Niliy shomlarini munavvar aylab,*
*Misli yog‘du bo‘ldi Navoiydek sham!*
*Daholarning izi qolgan Samarqand,*
*Gohi xarob bo‘ldi, sarbaland gohi.*
*Asrlar o‘tarkan bo‘lmagay unut,*
*Temur shavkati-yu Ulug‘bek ohi...*

* * *

*Ulug‘ siymolarga bo‘lgandir beshik,*
*Samarqand aslida – ma’rifiy bo‘ston.*
*Undan ilhomlangan Navoiy bobo,*
*Yozdi qancha g‘azal va beshta doston!*
*Boqiy shon-shuhratiga o‘ylasam goho,*
*Quvonchim abadlik, fig‘onim – foniy.*
*Sendan faxr etarman Ona-Samarqand,*
*Buyuk ajdodlarga dargohi soniy!*
*Bu ko‘hna shaharda qolgandir abad,*
*Alisher Navoiy o‘chmas izlari.*
*Oqqan daryo mudom oqqani misol,*
*Ortidan bormoqda o‘g‘il-qizlari!*



**To‘lqin ESHBEK.**

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

*Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 201 nusxada chop etildi. Buyurtma 54. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2*

***Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.***

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56**
**BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**
**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:** G‘.HASANOV.
**Navbatchi:** X.ERNAZAROVA.
**Sahifalovchi:** B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda